



ZULFIYAXONIM- O'ZBEK SHE'RIYATINING OLMOSI.

Dadayeva Dildora Ixtiyor qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi

3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatining olmosi, hayoti davomida yozgan barcha she'rlari o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan. Zulfiyaning eng sevgan mavzularidan biri bu bahor va insonning bahoriy kayfiyati va tashvishlaridir. Shoiraning she'rlarida lirik qahramonning qalbi quvonchga to'la holda tabiat va insonning birligi, tabiat hodisalarining lirik qahramon his tuyg'ularini to'liqlashtirishi obrazli ifodalar orqali ko'rsatilganligini shohidi bolamiz.*

Annotation. *Zulfiyakhanim is the apple of Uzbek poetry, all the poems he wrote during his life have left an indelible mark on Uzbek literature, one of the favorite topics of zulfiyakhon is the spring and spring mood and anxiety of man. In the poems of the poet, we witness that the soul of the lyrical hero is shown through figurative expressions, full of joy, the unity of nature and man, the waving of the feelings of the lyrical hero of the phenomena of nature.*

Аннотация. *Зульфийяхоним-алмаз узбекской поэзии, все стихи, которые он написал при жизни, оставили неизгладимый след в узбекской литературе. одна из любимых тем Зульфийи-весна и весеннее настроение и заботы человека. В стихах поэтессы мы являемся свидетелями того, как через образные выражения проявляется единство природы и человека, когда душа лирического героя полна радости, волнения чувств лирического героя явлениями природы.*

Kalit sozlar. *Adabiyotshunos, Hayot varaqalari, Nilufar, davr g'oyalari, Ishchi, Mushoira, Visol, Kirill va Mefodiy, Semurg' yoki Parizod va Bunyod, Lolaqizg'aldoq, Yillar, ijod, fazilat, sadoqat.*

Key words. *Literary critic, life sheets, Lily, ideas of the era, worker, Mushaira, Visol, Kirill and Mephodius, Semurg or Parizod and Bunyod, Tulip, years, creativity, virtue, loyalty.*

Ключевые слова. *Литературовед, свитки жизни, Лилия, идеи эпохи, рабочий, Мусойра, Визоль, Кирилл и Мефодий, Семург или Паризод и Буньод, Тюльпан, годы, творчество, добродетель, верность.*

Adabiyotimizda o'ziga xos sahifa ochgan lirik shoiramiz Zulfiyaxonimning ijodi ma'naviy, adabiy hayotimizda o'z o'rniga ega. Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ta'rifi bilan aytganda, shoirani " odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo'shgan asosiy omil bu uning e'tiqodi, juda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarini, dili bilan tilining birligi, she'rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o'zi hayotda og'ishmay amal qilganida".



O'zbek xalqining sevimli shoirasi, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 martda Toshkentning "Degrez" mahallasida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. U xotin-qizlar bilim yurtida o'qib yurgan vaqtlaridayoq adabiy to'garaklarga qatnashib, she'rlar mashq qilgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin - qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. 1935-yil O'zbekiston SSR Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot instituti aspiranturasiga o'qishga kirgan. 1935-yildan 1980-yilgacha, qariyb o'ttiz tilga yaqin respublikamizda keng tarqalgan "Saodat" nomli xotin - qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan. Zulfiyaxonim Isroilova Hamid Olimjon bilan turmush qurgan. Biroq ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada 1944-yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayrildi. Shoira esa 1996-yilda 81-yoshida vafot etadi. Shoira badiiy ijodga juda erta kirishdi. O'n yetti yoshida "Hayot varaqalari" deb atalmish dastlabki she'riy kitobini chop ettirdi. Uzoq ijodiy umri davomida o'ttizga yaqin she'riy to'plamlar, o'ndan ortiq dostonlar yaratdi. Zulfiyaning ulkan iste'dodi faqat yurtimizdagina emas balki dunyo miqyosida ham e'tirof etilgan. U - xalqaro "Nilufar" mukofoti egasi. Shoira sherlarining elaro mashhurligi tasodifiy emas. U bolaligidan olamga hayrat ko'zi bilan qarovchi, uning boshqalar ko'rolmaydigan jihatlari ilg'ovchi qizaloq ekanligi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni alangalatardi. "Ilm-fan va ta'lim" ilmiy jurnali 2181-4325 | <https://ilmfanvatalim.uz/> | № 1 ~ 117 ~ Shoira bolaligini shunday eslaydi: "Otamni... Isroil degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim. Uning qo'llari cho'g'ga aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bolishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham muayassar bo'lavermas ekan... Zulfiyaning "Men ish qizi" nomli birinchi she'ri 1931 yil 17 iyulda "Ishchi" gazetasida bosilib chiqdi. "Hayot varaqlari" nomli ilk to'plami o'n yetti yoshida nashr etildi (1932). 1935-1938 yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida tahsil oldi. 1938-1948 yillarda nashriyotlarda muharrir, bo'lim boshlig'i, 1950-1953 yillarda esa "O'zbekiston xotin-qizlari" (hozirgi "Saodat") jurnalida bo'lim boshlig'i, 1953- 1985 yillarda esa bosh muharrir bo'lib ishladi. Zulfiya badiiy-estetik puxta she'rdostonlari bilan Oydin, Muzayyana Alaviya, Xosiyat Tillaxonovalar safiga kirib keldi. Zulfiyaning ijodiy kamolotida o'zbek va rus klassiklari, xalq og'zaki ijodiyoti va jahon adabiyoti an'alarining roli beqiyos bo'ldi. 1940-yillar oxirida e'lon qilingan Sovet Ittifoqining san'at va adabiyot to'g'risidagi qarorlari o'zbek adabiyotiga ham katta zarar keltirdi. Zulfiya badbin kayfiyatlar — pessimistik kechinmalar kuychisi sifatida ta'na toshlari ostida qoldi. Shundan keyin u, boshqa qalamkash birodarlari singari, „davr g'oyalari“ni



ifodalovchi she'rlar yozishga o'tdi. Lekin ko'p o'tmay, o'zbek ayollari hayotini yaxshi biluvchi shoira va jurnalist sifatida dugonalari haqida she'r va publitsistik maqolalar yozdi, ularni ijtimoiy faollikka chaqirdi, insoniy haq-huquqlarining poymol bo'lmashligi uchun kurashdi. 1950-yillarning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yillardan boshlab uning ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. "O'ylar" she'riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" "Yillar, yillar..." she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana "Ilm-fan va ta'lim" ilmiy jurnali doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" dostonini yaratdi. Ayni paytda shoira bolalarga bag'ishlangan turkum she'rlar ham yozdi. Zulfiya hayotining muhim bir qismini Hamid Olimjonning adabiy merosini o'rganish va nashr etish ishiga bag'ishladi. Ana shu jarayonning uzviy qismi sifatida u shoirning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostoni asosida qo'g'irchoq teatri uchun "Semurg" pyesasi (S. Somova bilan hamkorlikda) hamda "Zaynab va Omon" operasi librettosini yozdi. Zulfiya xalqaro "Javaharlal Neru", "Nilufar", mukofotlari Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti laureati. Shuningdek, u Bolgariyaning "Kirill va Mefodiy" ordeniga sazovor bo'lgan. O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga olib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi. Toshkentdagi ko'chalardan biriga uning nomi berilgan. Ardoqli shoira tavalludining 100 yilligi esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 31 oktyabrdagi qarori bilan keng ko'lamda nishonlandi, chinakam adabiyot bayramiga aylanib ketdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hotam Umur, Azmiddin Nosir. She'riyat malikasi. - Samarqand: "Zarafshon", 1996. - B. 35
2. Zulfiya. Asarlar. 3-jild. Kamalak. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. - B. 172.